

O'ZBEKISTONDA IQLIM O'ZGARISHLARINING VUJUDGA KELISHI VA ULARNING OLDINI OLISH MASALALARI

Abdukaxorova Sadoqat Baxshullo qizi

Magistr, Navoiy Davlat Universiteti, O'zbekiston

Ilmiy rahbar: Shamsidinova Gulchexra Dustmorodovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent, Navoiy Davlat Universiteti, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14737032>

Annotatsiya: Ushbu maqola Yerning iqlimiy o'zgarishlari va ekologik muammolariga bag'ishlangan. Maqolada Yerning tarixiy o'zgarishlari, iqlimning tabiiy ravishda qanday o'zgargani va bugungi kunda inson faoliyati ta'sirida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar tahlil qilinadi. Xususan, O'zbekistonda iqlim o'zgarishlari va bu o'zgarishlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlari yoritilgan. Maqolada iqlim o'zgarishlarining sabab va oqibatlari, shuningdek, ularga qarshi kurashish uchun amalga oshirilayotgan xalqaro va milliy chora-tadbirlar haqida so'z boradi. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi roli, O'zbekistonning bu boradagi tashabbuslari va ekologik siyosatga doir eng muhim yangiliklar hamda davlat va shaxsning ekologik mas'uliyatlari haqida ma'lumot berilgan. Maqola ekologik ta'lim va ongni oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlatish, shaharlar va hududlarda ekologik tozalikni saqlash kabi amaliy choralarni amalga oshirishning zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar, O'zbekiston, xalqaro hamkorlik, BMT, ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, global isish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik siyosat.

Ilmiy faktlarga ishonadigan bo'lsak, bugungi kunda sayyoramizning yoshi taxminan 4,5 milliard yilni tashkil etadi va bu davr mobaynida Yerda sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hozirgi atmosfera tarkibi, iqlim, sayyora massasi, biologik xilma-xillik o'sha vaqtdagidan tubdan farq qiladi. Dastlab sovuq bo'lgan sayyorada yillar o'tgan sayin okeanlar va qit'alar paydo bo'ldi, endi u o'zi va Quyosh atrofida ham nisbatan sekinroq aylana boshladi. Natijada esa Yerda biologik xilma-xillik ortib bordi, sayyora namlik oqimida, issiqlik almashinuvida va atmosfera tarkibida keskin o'zgarishlarga uchradi. Shunga ko'ra ayta olamizki, iqlim o'zgarishlari Yerning butun hayoti davomida to'xtovsiz davom etib kelgan, ammo, ular Yerda tabiiy ravishda sodir bo'lgan va yuzaga kelgan o'zgarishlar ham tabiiy moslanishlarga asos bo'lgan. Bugun esa inson omili nafaqat iqlim o'zgarishlari, balki, ularning jadallashuviga ham sababchi bo'lmoqda. Xususan, O'zbekiston hududida ham bir qancha iqlimiy o'zgarishlar va ularning natijasida vujudga kelgan ekologik muammolarga duch kelishimiz mumkin. Bunday muammolar negizida esa yuqorida aytib o'tilgan tabiiy va antropogen omillar turadi. Iqlim o'zgarishlarining qay sababdan paydo bo'lishi, qanday oqibatlarga olib kelishi va ularning oldini olish bugunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillar davomida dunyo bo'yicha iqlimiy masalalarni o'rganuvchi va tatqiq qiluvchi bir qator ilmiy markazlar tashkil etilgan bo'lib, ulardan eng mashhurlari qatoriga Butunjahon meteorologiya tashkiloti, Global Atrof-muhit jamg'armasi, "Yerning do'stlari" xalqaro tashkilotlarini kiritish mumkin.

Bundan tashqari hozirda BMTning mavjud 14 ta ixtisoslashgan tashkilotlardan 6 tasi atrof-muhit muhofazasiga aloqador masalalar bilan shug'ullanadi. Jumladan, YuNESKO-ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilot faoliyatining asosiy

yo`nalishlaridan biri atrof-muhit muhofazasi sohasida maorif va kadrlar tayyorlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga qaratilgan.

FAO– oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkilot. U yer, suv, o'simlik va hayvonlardan kompleks foydalanish, ularning unumdorligini oshirish muammolari bilan shug'ullanadi.

VOZ- xalqaro sog'likni saqlash tashkiloti. Atrof-muhitni muhofazasining sanitary-gigiyenik masalalari bilan shug'ullanadi.

VMO- xalqaro meteorologik tashkilot. Iqlimdagi umumsayyoraviy o'zgarishlar bilan shug'ullanadi.

IMKO- dengizlar bo'yicha davrlararo maslahat tashkiloti. Bu tashkilot dunyo dengiz va okeanlaridan foydalanishning ekologik jihatlarini bilan shug'ullanadi. Yuqoridagilardan tashqari, BMTning ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi kengashi EKOSOS faoliyatida ham atrof-muhit muhofazasiga jiddiy e'tibor beriladi.

Aytish joizki, dunyo bo'ylab iqlim o'zgarishlari va ekologik ko'rsatkichlarning o'zgarishi yuzasidan tinimsiz izlanishlar olib borilayotganligiga qaramasdan, so'nggi bir yarim asrda bunday o'zgarishlarda inson omili katta rol o'ynayotgani e'tibordan chetda qolgani yo'q. Jumladan, ishlab chiqarish shiddat bilan rivojlanib, atrof-muhitga chiqarilayotgan zararli chiqindilar miqdorining ortishi, demografik o'sish, avtomobillarning ko'payishi havoning o'rtacha harorati ortishiga sabab bo'layapti. Iqlimni mo'tadil saqlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar maydoni esa yildan-yilga qisqarib bormoqda.

Tabiiyki iqlim o'zgarishlari keyingi yarim asr ichida bizning mintaqaga ham sezilarli ta'sir o'tkazdi. Bir paytlar mavjlanib yotgan Orol dengizi maydoni o'nlab baravarga qisqarib, uning o'zani qaqroq sahroga aylandi.

So'nggi yillarda havo haroratining ko'tarilishi natijasida Sirdaryo va Amudaryoni suv bilan ta'minlaydigan Pomir va Tyanshan muzliklari shiddat bilan erib bormoqda. Tojikiston hamda Qirg'iziston vakillari ba'zi muzliklar 20-30% eriganini aytishmoqda. Bir necha o'n yilliklar ichida esa bu muzliklarning yarmidan ko'pi erib bitishi mumkin.

Shu va shunga o'xshash iqlim o'zgarishlarining noxush oqibatlariga qarshi kurashish maqsadida O'zbekiston hukumati tomonidan xalqaro hamjamiyat bilan hamkorliklar faol yo'lga qo'yilgan va bir qancha xalqaro shartnoma va bitimlar imzolangan.

Jumladan, 2016-yil 19-aprel kuni O'zbekiston Parij bitimiga qo'shildi, BMTning to'laqonli a'zosi sifatida O'zbekiston ushbu tashkilot tomonidan qabul qilingan barcha qonun, qaror va protokollarga to'laqonli amal qiladi, hamda ularga qo'shimcha tarzda doimiy ravishda bir qancha loyihalar ishlab chiqadi. Xususan, O'zbekiston Prezidentning 2023-yil 8-iyundagi "Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Green University faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Ushbu universitet davlat OTM hisoblanib, faoliyatini Hub and Spoke tamoyili asosida olib borish rejalashtirilgan bo'lib, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasining muhim ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy muammolarini hal etishga qodir mutaxassislar, olim, tadqiqotchi, rahbar va tadbirkorlarni tayyorlash Universitetning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Joylarda keyingi yillarda mintaq mamlakatlari o'rtasida o'zaro hamkorlik muhitining rivojlanishi, munosabatlarning iliqlashishi iqlim o'zgarishlarini muvofiqlashtirishga ham

ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Xususan, avgust oyida Turkmanistonda Orol muammosiga bag'ishlab o'tkazilgan sammitda ham mintaqadagi davlat rahbarlari ana shu masalalarni keng muhokama qilib, zarur chora-tadbirlarni belgilab olishdi.

Xulosa:

Ushbu ekologik masalalar faqat davlat idoralari, soha mutaxassisleri zimmasidagi vazifa bo'libgina qolmay, har bir inson global isish, iqlim o'zgarishlarining oldini olishga qo'lidan kelgancha hissa qo'shishi shart. Ishlab chiqarish korxonalarida asosan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, imkon qadar ekologik toza transport vositalari (velosiped, elektromobil) xizmatidan foydalanish, yirik shahalarimizda avtomobilsiz kunlarni joriy etish, ko'p miqdorda yoqilg'i sarflaydigan avtomashinalar uchun to'lovlarni oshirish singari choralar ham ma'lum ma'noda iqlim o'zgarishlarini cheklashga yordam berishi mumkin. Hududlarda, ayniqsa shahar joylarida daraxtzorlarni yanada ko'paytirish, daraxtlarning asossiz kesilishiga yo'l qo'ymaslik ham shular jumlasidandir. Zotan, tabiiy boyliklarimizga ehtiyotkorona munosabatda bo'lsak, suv, gaz, elektr energiyasining ortiqcha sarfiga yo'l qo'ymasak, o'zimiz yashayotgan hudud, hovli yoki ko'chaning toza va ozodaligiga e'tibor qaratsak qaysi bir ma'noda ekologiya va atrof-muhit sofliqiga ma'lum miqdorda o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

References:

1. Qosimov, T. (2020). *O'zbekistonning ekologik rivojlanishi va atrof-muhitni himoya qilish choralari*. Toshkent: O'zbekiston ekologik jamiyati nashri.
2. Karimov, A. R., & Zakirov, A. T. (2021). *Environmental effects of mining and industrial activities on public health in Uzbekistan*. Uzbekistan Journal of Environmental Studies, 13(1), 77-89.
3. Jahon Meteorologiya Tashkiloti (2022). *Iqlim o'zgarishlari va global isitish*. BMT Atrof-muhit dasturi, YUNESKO, Global Environment Facility (GEF).
4. Shamsidinova G.D. Yuldashev M.X. Boratova M.G'. (2021). *Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik*.